

# Yangi yil bayramiga maxsus chegirmalar

**2021 24 Dekabr**

«Uzbekistan Airways» AJ Yangi yil bayramiga bag'ishlab joriy yilning 2021-yil 31-dekabrden 2022-yil 4-yanvarga qadar O'zbekiston Respublikasi bo'ylab amalga oshirilayotgan ichki reyslar aviachiptalariga 30% dan 50% gacha chegirmalarni e'lon qiladi.

Chegirmalar O'zbekiston shaharlari o'rtasidagi barcha qatnovlarga amal qiladi va quyidagi toifadagi yo'lovchilar uchun taqdim etiladi:

- Yakka tartibdagi yo'lovchilar 30%;
- Turistik guruhlar (5 va undan ortiq kishi), maktab o'quvchilari, kollej, litsey, OTM talabalari, O'zbekiston Respublikasi IIV, MV, DXX, DSQ, DBQ tizimlari talabalari va tinglovchilari va boshqa idoralar uchun 40%;
- Oila uchun 50% (2 va undan ortiq, ya'ni: eru-xotin va ularning 18 yoshdan oshmagan farzandlari, ota va uning 18 yoshdan oshmagan farzandlari yoki ona va uning 18 yoshdan oshmagan farzandlari);
- Nafaqaxo'rlar uchun 50%;
- Nogironligi bor shaxslarga 50%;
- 1941-1945 yillar urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslarga 50%;
- 1941-1945 yillarda urush va mehnat frontida ko'rsatgan fidokorligi uchun orden va medallar bilan taqdirlanganlar uchun 50%;
- Chernobil AES halokati oqibatlarini oldini olishda ishtirok etgan ishtirokchilar uchun 50%.

Eslatma:

2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalarga chegirmalardan 1 tasini qo'llashga ruxsat beriladi. Bir nechta chegirmalarni birlashtirishga yo'l qo'yilmaydi. Yuqorida

ko'rsatilgan chegirmalar chaqaloqlar va 2 yoshga to'lmagan bolalar uchun amal qilmaydi. Aviachipta xarid qilayotganda tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari bo'lishi kerak.

Будьте в курсе всех новостей от Uzbekistan Airways

Telegram: [t.me/uzbekistanairways](https://t.me/uzbekistanairways)